

Ilk kelgan mahalim, bu yer ko'zimga xuddi operatsiya xonasiga o'xshab ko'rinardi, dardim bir oz aridi shekilli, keyinchalik ko'zim o'rganib ketdi. Ammo palatadagi hamxonam sal g'alatiroq chiqib qoldi: rangpar, ozg'in, jonsarak, bir qarashda, odamda qarama-qarshi tuyg'ular uyg'otadi, jirkanishmi, rahmdillikmi?.. Aslida, bu yerning o'zi ham asabimni qo'zg'ardi, katta xonaning ko'chaga qaragan bittagina derazasi bo'lib, uning oldida, ha-a, hamxonam A'zamjon yalpayi-ib yotardi. Kechalari kuladimi, gapiradimi-ey, xullas, tinchlik yo'q: (qo'rqasan ham) ko'zini ochar-ochmas ko'rgan tushi haqida gapira boshlaydi. Eng yomoni, u... A'zamjon hikoya qila, gapira turib, birdaniga bezgak tutganday qaltirab, ko'zlari olayib, og'zidan ko'pik sochib, shaytonlaganday xirillaydi. Ba'zan qaysi dunyoda ekanligimizni anglay olmay qolaman. Tugmani bosaman, darrov hamshiralalar yetib kelib, allaqanday ukollarni hilvirab ketgan ozg'in, sersuyak ketiga sanchishadi. Shaytonlagan bemor zum o'tmay, bir dumalab jonon yigitga aylangan devday, o'ziga keladi. Go'yo yana tun tushishini kutib turgan nomozshomgulday tantanavor ochiladi. Jim yotish haqida ming tavallo qilsam ham, juda bo'lmadi deganda, yonboshlab oladi-da, derazadan ko'rayotganlarini hikoya qila boshlaydi.

- Bugun kun issiq bo'ladinganga o'xshaydi, hozirdan suv sotadiganlar va morojniychilar ko'cha chetiga xolodilniklarini joylashtiryapti. Yo'lakka allaqachon suv ham sepib ulgurishibdi. Biz qachon morojniy yer ekanmiz, Omon aka?

- Yosh bolaga o'xshaysiz, A'zamjon, qaerdagi narsalarni orzu qilasisiz. Sog'lig'ingizni o'ylasangiz-chi, yana bir shaytonlasangiz, o'lib ketishingiz mumkin, - deyman boshimni u tomonga xiyol burib.

- Xonamizning dimligi yoqmaydi-da, aka, bir kondisoner bo'sa yaxshi bo'lardi...

- Yana nimalarni orzu qilasisiz, yo morojniy deysiz, yo kondisoner... xuddi bu yerga dam olishga kelganga o'xshaysiz. Bular haqida oldinroq o'ylashingiz kerak edi, A'zamjon, - deyman uning yuzidagi quvnoqlik va xursandchilikni yoqtirmay.

- Omon aka, juda tartibli odamsiz-da, axir bu yerda ertadan kechgacha shiftga qarab yotib, jinni bo'lib qolish mumkin, aka. Uhh... - deb uzun uh tortadi.

- Yana nima bo'ldi, - deyman hayronligimni yashirolmay.

- O'tgan yozning shu kunlarida bittasini shunday sevib qolgandim, aka, - deydi u ko'zlari xiyol yoshlanib.

- O'zi nechchi yoshga kirgansiz, nuqul aka, aka, deysiz - astoydil jahlim chiqadi.

- O'ttiz yettiga, - deydi yana u og'ir xo'rsinib...

- O'ttiz yetti!? Xapa bo'lmang-u, men sizni ellikdan oshgan deb o'ylabman, og'ayni.

Uning yuzlari yana ham oqarib ketganday bo'ladi.

- Endi aytmoqchi edim, ellikdan oshgan odamga muhabbatni kim qo'yibdi, deb.

- Aka-a..., - deydi hayajonlanib A'zamjon. - Nima ellikdan oshgan odamning yuragi yo'qmi... ko'ngli yo'qmi... mana siz bir pari ayolni, qizni ko'rsangiz yuragingiz "shig'g" etib ketmaydimi?

- Ko'rib o'tiribman, yurakni qanday abgor qilganingizni... Qizim tengi ayollarni qanday seva olaman, imonim butun, - deyman hafsalam pir bo'lib.

Derazadan ko'chani shovqini, gungir-gungir gaplar, allakimlarning xoxolagani eshitiladi va tandir somsaning hidi bizning palataga ham kirib keladi. Somsaning o'zi mumkin bo'lmasa ham, hididan to'yib olay deyman.

- E-e, aka, bunga imonning qanday aloqasi bor, - deydi fikrlarimni bo'lib. - Kim bilan bo'lsa ham garov o'ynayman, muhabbatning o'zi ham eng katta e'tiqod.

- Shoyir emasmisiz ishqilib?..

- Juda qiziqsiz (ming yildan beri taniganday, qiziq ekansiz demaydi), shoyirlikning nima aloqasi bor, shoyir bo'lsam nima qilibdi.

Ohh... men sevgan ayol... uning ovozigina joningni olardi. Faqat oilasi bor edi-da... Dahshat edi, yaqinlashsang yondiradi, shunday xotinlar bor, bilsangiz.

- Nima bo'lgan, bechora olamdan o'tganmi? - deyman hamxonamning sergapligidan charchab ko'zimni yumib.

- Xoladilnikda tug'ilganmisiz, muncha gaplaringiz sovuq...

Hamxonamning rosmana telba ekanligiga shubha qilmay, undan umuman hafsalam pir bo'ladi. Lekin, baribir, uning shaxsiga, o'sha xotinning kimligiga, buning ustiga yondiradigan xotin bilan qanday ishqiy uchrashuvlar bo'lgan ekan, degan ma'noda qiziqishim ustunroq chiqadi.

- Asli nima bo'lgandi, A'zamjon? - deyman biroz yumshab.

- Shuni aytgim kelmayapti, Omon aka, qo'ying, shu mening muqaddas sirim bo'lib qolsin, - deydi olam jahon og'rinib.

- O'v, uka, qanaqa sir, o'zingiz boshladingizmi, endi gapiring, man sizdan so'ramagandim, o'zingiz yondiradigan xotinlar bor, dedingiz. Endi gapiring.

Eshik ochilib, chiroyli hamshira qiz xushbo'y atirlarni taratib kirib keladi, po'pisa qilganday, barmoqlarini niqtaydi.

- Nu-nu, hurmatli kasallar, bu qanday shum, A'zam aka, sizga hayajonlanish mumkin emas, badaningizda ukol qiladigan joy ham qolmadi.

O'sha tomonga boshlarimni buriblar qarayman, hamshiraning qovog'i ustiga surgan ko'k bo'yog'i juda yarashgan, qip-qizil lablarini ajratib turar edi. Azbaroyi tan olishim kerak, o'zim bilmagan holatda "yondiradigan xotin"ning belgilarini undan izlayotgandim.

- Tartibga chaqirib qo'ying bu A'zamjonni, singlim, yo'masam ja haddidan oshadi. Dunyoda yondiradigan xotinlar bor deydimi-ey.

- Obbo, o'lmang siz Omon aka, qo'ymaysiz, oh, oh... - deydi muattar havolarni simirib A'zamjon.

- Voyy..., - hamshira og'rinadi, - asli chiroyli ayollarning yonida o'zga xotinlar haqida gapirishsa, shunday holat yuz beradi. -

Sizlarga xotinlar haqida gapirishga hali erta, yuragingizga nagruzka tushadi.

- Ayollar - bitmas-tuganmas nagruzka.

Hamshira chiqib ketgach, jazillayotgan qo'yimchlarimizni silaganimizcha yana yengil tortamiz, oq, qizg'ish, sariq rangli tabletkalarni yutgancha yana gaplashishga chog'lanamiz.

A'zamjonni chaqqan pashsha qornini ko'tarolmasdan g'o'ng'illab havoga ko'tariladi, uni chaqqan deganimga bois, ba'zan kuzatib turaman, bir vaqtning o'zida ikkita pashsha biror joyini chaqib tursa ham parvo qilmaydi, xayollari allaqayoqlarda bo'ladi.

- Har kun oynadan qarayman-u, aka, - deydi A'zamjon o'z-o'ziga gapirganday shirin entikib. - Ko'chadan kelayotgan birinchi ko'ringan ayolni o'shanga o'xshataman, nahotki bemorligimni eshitgan - yo'qlashga kelayotir, deb o'ylayman.

- E, u hali o'lmaganmidi, nuqul bir xotin yoqqan, yoqqan deysiz.

- O'h, sizam kuydirasiz meni... Sizga nima, axir. O'likmi, tirikmi... bu mening problemam.

- Xo'sh, gapiring o'sha problemangizni, ja o'zingizni ko'p taroziga solvordingiz. Buni bildik nima, bilmadik nima, bu yerdan chiqamizmi, yo'qmi... do'zaxda kimga aytasiz buyuk siringizni, - deyman hazillashishga urinib kulib.

- Sizning har gapingizga ilon po'st tashlaydi, ilonlar bo'qiladigan inkubatorning boshlig'i emasmisiz... Bilasizmi, u ayol kim edi?..

- Kim edi?!

- Norxo'ja Olimovning xotini... - A'zamning nafasi ichiga tushib, ovozi chiqmay qoladi.

- Ola-a, - dedim hayronligimni yashirmay. - U ministrning xotiniga qanday yeta qoldingiz?

- Yetdim, aka, yetdim. Siz mening kimligimni bilmaysiz-da, - deydi uzun uh tortib.

- Zo'r ekanmi, ihm-ihm mammalaridan deganday, - dedim shoshib, ko'z oldimda allaqanday manzaralar gavdalanganidan vujudim qizib.

- Iya, aka, hali, dunyodagi eng mustahkam imonni da'vo qilayotgandingiz, bu yog'i qandoq bo'ldi? - deydi uning ko'zlari g'alati yolqinlanib. - Siz sevgi deganda faqat ko'rpa-to'shakni tushunarkansiz...

Uning sal oqarib ketgan yuzlariga tikilib turib, miyandan "bu bolaning esi joyida emas, yo nozikroqlardanmikan" degan fikrlar o'tadi, u fikrimni shundoq o'qib turganday, duvva qizaradi.

- San bola ertalabdan buyon ja mani chalg'itding, endi qulog'imga lag'mon osmoqchisan, erli, xotinli odam nima uchun yuradi, shu narsa uchun-da, o'n yetti yashar emassizlarki... parklarga bekinib olib, o'pishii-ib o'tirsangizlar?..

- Qo'ying aka, qo'ying, chuqurlashmaylik, - umrida haydamaydigan pashshalarni haydaganday, qo'llarini asabiy harakatlantirib, boshini deraza tomonga burib oladi.

Alamim keladi, shu yotgan holimizda ham bir o'jiz, notavon, allaqanday juvonning shattasidan keyin yuragini changallab, yotib olgan bu xotinchalishdan mag'lub bo'lib o'tirsam...

Ko'z qirim bilan u tomonga qaradim, hali boshini deraza tomonga burganicha ezilgan yaproqday yoyilib yotardi, nozik bo'ynining tomirlari chiqib ketgan, titrab ketadimi-ey... balki, yig'layotganmikan? Tantana qildim, lekin ayni ana shu holati ichimdagi kufurimni yana qo'zg'atib yuborgan, shundagina bu telba oshiqni deraza oldidagi o'rinda yotgani uchun qo'li uzun ekan, degan qarorga keldim. Chunki, har kun tong otishi bilan A'zamjon deganimiz, deraza orqali jahon axborotini boshlab yuborardi. Tan olish kerak edi, u tashqi olamni qoyillatib tasvirlardi, ba'zan o'sha davrdagi xotiralar yodiga tushadimi, yo shu kunlarni qo'msaydimi, ko'zidan yosh chiqib ketgan paytlari bo'lardi. Qat'iy qaror qildim, agar u tuzalib ketadigan bo'lsa, deraza oldidagi o'rindiqning e'lon qilinmagan valiahdi o'zim bo'laman, asli kelgandan nega o'tib olmadim-a, ihmm... kelganimda A'zam deganlari ana ketdi, ana bordi bo'lib, cho'kka tushgan tuyaday yalpayib, joyni egallab yotgandi.

Yurakning og'rigani yomon bo'larkan, har lahzada u dunyodan xabar keldimikan, deb xavotir olaman, "gup-gup"... qachongacha urib turarkan, axir u temir emas, bir parcha et, bir kun kelib to'xtaydi-qoladi... Shunday xayollar bilan ko'zim endi ilingan ekan, allaqanday hirqiroq sasdan ochilib ketdi, bir daf'a qaerdaligimni bilmay yotdim. Xonaning qorong'iligini ko'chadan tushayotgan g'ira-shira yorug'lik ham yoritolmasdi, "bu kasalxonada... anov, tiqilib qolgan qo'yday hiqillab yotgan A'zam" deyman.

Kasalxonadagi tunni juda yomon ko'raman, go'yo bu yerning o'ziga xos tuni bor, go'yo bu yerning tuni, xudo qarq'agan, turli dardlar bilan bir xonaga yig'ilgan bemorlarning irodasini sinamoqchiday, odam bolasining vujudidagi barcha kasalliklar va barcha og'riqlar tun cho'kishi bilan uyasi buzilgan ariday qo'zg'alib qolishadi. "O'zing hamma narsaga qodirsan, egam", deyman, xuruj qilib, ko'kragimning ostiga pichoq sanchilayotgan og'riqdan nafas olmay. "Bilib-bilmay qilgan gunohlarimni o'zing afu et". Shayton qiyofasiga kirgan kasallik esa, ayamay ko'kragim ostiga pichoq sanchadi, "xudoyim, o'zing qodirsan...".

"Sal og'risangiz xudo esingizga keladi" degan sas eshitaladi qorong'ilik qa'ridan, yuragimning "gupillab" urishidan shaytonlab qolay deyman. Sas qulog'imga kirishi bilanoq ichimda odatiy so'zlar qalqiydi: "Ertalabga yetmay o'l".

Ohu fig'onlarim olloga borib yetdimi, "qassob" pichog'ini ko'kragimdan bo'shatdi, shu on qulog'imga xirillagan sas kiradi.

Qo'limni devorga cho'zib, beixtiyor qo'ng'iroqni bosib yuboraman. Xira chiroqlar yoritgan, dorilar hidi anqiyotgan jim-jit kasalxonada yo'laklari ovozdin jonlanganday bo'ladi. Eshikdan hamshiraning uyqusiragan yuzi ko'rinadi, yonimga ishora qilaman, yana hamxonamning ilma-teshik vujudiga iyna tiqishadi. Zum o'tmay namozshom gul yana ochiladi: "Omon aka, yomon yozg'irdingiz-ey, bechora xudoning ham yetti qavat osmonda uyqusi o'chib ketgandir". "Voy, oqibatsiz, voy iynaning ostida joning uzilsin". "Ol, bandam olaver, mulkim kamayib qolmaydi degan". "Yaxshilik bilmagan oyim supurgi, bozorda ham bitta shunday "bezdarniysi bor edi".

- Oldin burningizni artib oling, oyimtilangizni qo'msabsiz chog'i?

- Aka, yig'lagandan so'ng, burun oqadi-da.

- San bola shunday o'zingni ayamasang, bir kun o'lib ketasan. Erkak odam... yig'laganing nimasi...

- Ey, aka, beamr tikon kirmas, agar ajalim shu kasaldan bo'lsa, na iloj, ixtiyor olloda... hech kimga keragi bo'lmagan bir yetim bola bo'lsam.

- Tem bolee... shu yetimliging uchun aytyapman.

- Uxlaylik.

Tun qoq yarmidan oshdi shekilli, derazadan tushayotgan zaif yorug' ham xonani yoritolmasdi, bemor hamxonam ko'p vaqtgacha hiqillaganday burnini tortib-tortib uxlab qoldi. "E-e... hali bu yosh bola ekan". Yo'lakning qaeridadir jo'mrakdan shirillab suv oqar, shu zaifgina sas butun dunyoni qamrab oladiganday edi. "Hamshira qiz uxlayotganmikan, ko'k bo'yoqlari chaplashib ketganmikan, go'zal qizlar qanday uxlarikan, nafas olsa, chiroyli siynalari ko'tarilib tushayotgandir, agar tun ko'ylak kiygan bo'lsa, bir juft siyna, tunda yaproqlar orasidan ko'ringan nashvatiday mo'ralab tursa kerak".

Ko'cha tomondan yakka-siyrak o'tgan mashinalarning sasi eshilib qolar, qaeridadir mast-alastlarning so'kinib g'o'ng'illagani eshitar, shuning barobarida vujudimda mavjud bo'lgan allaqanday kasallar uyg'ongan, oyoq-qo'llarimning bo'g'im-bo'g'imigacha zirqirab og'rirdi. Xona juda dim bo'lib ketdi, balki A'zamjon kuchini yel chiqarishga sarflayotgandir. "Bir kondisoner kerak ekan". Nogahon, A'zam telbaning ishq qissasi yodimga tushdi: "alqissa ministrning xotini bizning telbani tashlab, boshqasiga o'tib ketibdi. Bu xudoning zorini qilibdi... allaqanday kitoblar yozibdi... u yondirganicha ketaveribdi". Ministrning ko'zlari qaerda ekan...

Timirskilanib stolga taxlangan dorilarni oldim, ikki tabletka "Sinada" va bir tabletka og'riq qoldiruvchi "Baralgin" ichib yubordim. Og'zimning taxirligidan ko'nglim aynirdi. Kasalxonaning tuni jonimga tegib bo'lgan, yo'lakdagi jo'mrak yanada qattiqroq tovush chiqarib oqar, hamshira qiz ko'k bo'yoqlarini chaplab, toshday qotib uxlardi. Ko'p o'tmay, ilgari mast holatlarimdagiday boshim aylanib-aylanib, yuragim qattiqroq dupillab ura boshladi, "dorini ichmasam bo'larkan, yuragimga ta'sir qildi". Tosh bog'laganday og'ir qovoqlarim yumildi, xotiram qatlaridan ko'k bo'yoqli hamshira, A'zam yetolmay qolgan o'ynashi bilan, qorishiq holatdagi uyim, bozor, yana allaqanday notanish kimsalarning yuzi lip-lip o'tardi. "Ishq qissang bilan gumdon bo'l, A'zam oshiq, uyquni harom qilding". Qulog'imga radiodan taralgan allaqanday musiqa, qo'shiq saslari kirar va diktorning "Moskvada... kechagi portlash... natijasida o'n yetti kishi o'ldi..." degan gapi uzuq-yuluq kirardi. "O'lim" degan so'z sergak torttirdi, bu qora xabar, qora

This is not registered version of TotalDocConverter

kuchini o'ziga qaytarganiga va shu kungacha juda yaqin turar, istagan chog'i eshikni ochib, kirib kelishi mumkin edi.

- Aka, turing, tursangiz-chi... soat to'qqiz bo'ldi...

A'zamjonning nozik ovozi horg'in va xasta eshitalardi.

- U hozir kelib qoladi.

- Kim?.. - dedim jahl bilan. - Tinchlik bormi bu yerda, kasalxonami yoki vokzalni?.. - uyquga to'y maganim uchun miyam g'uvlardi.

- Aka, aka... iltimos, - deydi qizlarnikiday katta va tiniq ko'zlarini tikib. "Buni Norxo'ja Olimovning xotini bejiz sevmagan". -

Turing, turing... keyin aniqlab olasiz qaerdaligingizni?..

- E, qanaqa bolasan o'zi, "tur, tur" deysan, qayoqqa turaman, pastelniy rejimda bo'lsam, yo seniki Isoning hayqirig'idanmi: "Lazer, tur!" degan bilan jon bitadimi, uka, siz Iso payg'ambar va men Lazer emasman.

- Kechirasiz... kechirasiz, men sizni o'zingizga bir qarab olasizmi, debman. Prostinangiz tushib qolibdi, anovi dori qutilariga qo'lingiz yetadimi, har qalay ayol kishi, uning ustiga qalbi juda nozik... Oh, u sepgan farangi atirlarning hididan boshingiz aylanadi... Hozir o'zingiz ko'rasiz... - dedi u yana qizarib, poyintar-soyintar gapirib.

Yorishib qolgan xona eshigi ochilib, bugun ko'ziga boshqacha qirmizi rang surib olgan o'zimizning hamshira uyquli xumor ko'zlarini suzib-suzib kirdi. Taajjublanib bosh chayqadim.

- Qani, janob bemorlar, yumshoq joylaringizni tayyorlanglar-chi?..

- Bu azoblarning oxiri bormi?!

- Senda shafqat bormi, Mastura?

- Bu borishda miditsina sanoati yo'qotishga uchrashi tayin.

- Masturaxon, hozir bir opa A'zamjonni yo'qlab keldimi?

- Hozir? Hech kim kelmadi, soat yetti-yu, eshiklar ochilmadi ham...

- Tochno?..

- Tochno. Buning ustiga sibirskiy yozvaga qarshi karantin e'lon qilganmiz. Pashsha ham uchib kirolmaydi.

A'zamga ma'nodor qaradim, go'yo u hushidan ketayotganga o'xshardi.

- O'ylagandimki, erini ishga kuzatib kelavergan, biron joydan eshitib qolgan bo'lsa... to'g'rirog'i telefon qilgandim, - yana g'o'ldiradi A'zam.

- Hey inson, o'zbekchaga tushunasizmi, eshitdingiz-ku Masturaxonning gapini... - dedim jig'ibiyron bo'lib.

- Yaxshi aka, shunga shuncha baqirish shartmi, yuragimni yoray dedingiz, kemas, kemabdi.

"Sevmasa, sevmabdi... bir o'yinchi qiz".

Mastura yapaloq temir idishga ashqol-dashqollarini "sharaq-shuruq" solib, menga "uni qarang-a..." deganday qoshlarini uchirib, tonggi saboday yelib xonadan chiqdi.

A'zam yana allaqancha vaqt radioni qitirlatib yotdi... Diktorning jazavali sasi eshitaladi: "Bugun Amerika sohillariga yaqin qolganda, bir yuk kemasi ag'darilib, bir yuz sakkiz kishi suvga g'arq bo'ldi. Vafot etganlarning aksariyatini afrikalik norasmiy muhojirlar tashkil etadi". Bilib turibman, musibatli xabar unga yoqmadi, yana qitir-qitir... bir qiz nozli ovozda she'r o'qirdi: "Yo men boray, yo san kel. Muhabbat xudo ekan". Baribir ekan, ikkalasi yo'lning o'rtasida uchrashsa bo'larkan, xudoni tinch qo'ysa-chi, bular. Buyam yoqmadi, yarasini yangiladi. Yana qitir-qitir... shikasta bir ovoz "man sana qurbon o'lam"... derdi. Ayni shu qo'shiq xona uzra charx urib, deraza tomonga intilganda, A'zamjonning sabri chidamadi, radioni karovat chetiga uloqtirib, o'grilib oldi. "...Man sana qurbon o'lam...". Oradan ko'p o'tmay, uning navqiron vujudi bo'ronga bardosh berolmayotgan yolg'iz yaproqday chirpirak bo'lib, titrab, yuzi yana beo'xshov shaklga kira boshlagan edi. Ikki kuch uning tanasida kurash olib borib, axiri shayton g'olib bo'ldi chog'i, u yana xirillay boshladi. Tugmani bosmoqchi bo'ldim. Sal turib ikkilandim: "Nima men uni otasimanmi, har kun u yoqqa ag'daril, bu yoqqa ag'daril, boshqa hayajonlanma... boshqa sevma... Qo'ng'iroqni bos". Shu safar sinashga qaror qildim, nazarimda, har gal u "havo yetishmayapti", degan bahona bilan o'zini kasalga solardi. Yana shayton bilan olisha ketdi, yana xirillash, og'zidan tupuklar sochdi, notanish tilda alahladi. Qo'llari bog'liqday o'zini u yoq bu yoqqa urdi, yuzi insonning yuziga o'xshamay qoldi. "Hidoyat. Hidoyat"... "A, sanamning ismini nihoyat bilishga muvaffaq bo'ldik. Ertaga ko'zini ochirmayman, yo tugmani bossammikan? Nima men uni..." Ko'zimni yumganimcha, sovuqqonlik bilan hamxonamning soxta xirillashi, pichirlashi, gapirinishlariga quloq solib uxlab qolibman, dorining ta'siri ketmagan shekilli... "Balki uni qayta jonlantirish xonasiga olib o'tishar, ana unda maqsadimga yetishaman, derazaning oldidagi o'rin haqiqiy egasini topadi".

Ertalab ko'zimni ochsam, rostdan ham A'zamjon joyida ko'rinmasdi. Jonlantirish xonasiga olib o'tishibdi: yashasin, uning joyiga avaylabgina o'tkazib qo'yishdi va nihoyat derazaning oldida edim. "Ahvoli yaxshimas, balki umrining so'nggi daqiqalarini yashayotgandir". Men uni o'zini kasalga solyapti deb o'ylagan edim. Xamshiralar chiqib ketishi bilan deraza tomonga o'grildim, avval hech narsani anglamadim, u yoq qop-qorong'i edi. Ko'zimni ochib-yumdim, qorong'ilik. Derazaning oldida baland qop-qora devor bor edi, allaqanday idoraning devori. Yorug'lik va ko'chaning shovqini devor yoriqlaridan, oralaridan qisilib, sizib, sinib kirar ekan.